

ALLANING MILLIY QADRIYATLARIMIZDAGI O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Xodjayeva Nilufar Latipovna

Andijon davlat universiteti

San’atshunoslik fakulteti

Musiqiy ta’lim kafedrası o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada milliy qadriyatlarimizning eng durdona turlaridan bo‘lmish dastlabki qo‘shiq onalarimiz allalari haqida qisman tushuncha beriladi.

Kalit so‘zlar: Folklor, roviy, maddox, baxshi, qo‘shnoch, ertakchi, dostonchi, qo‘shiq, lapar, o‘lan, askiya, qiziqchilik, qo‘g‘irchoqboz

THE CHARACTERISTICS OF ALLA IN OUR NATIONAL VALUES

Khodjayeva Nilufar Latipovna

Andijan State University

Faculty of Arts

Teacher of the Department of Music Education

ABSTRACT

This article gives a partial overview of the gods of our mothers, the first song, one of the most glorious types of our national values.

Keywords: Folklore, narrator, madox, baxshi, neighbor, storyteller, narrator, song, lapar, olan, askiya, curiosity, puppet

Folklor asarlari qadim qadim zamonlardan namunalarini laparchilar, o‘lanchilar, askiyachi va qiziqchilar, qo‘g‘irchoqbozlar, roviylar, maddox va ertakchilar, baxshilar, dostonchilar, qo‘shnochlar xalq o‘rtasida ijro etishgan va targ‘ib qilishgan. Ushbu ijrochilar asrlar davomida xalq og‘zaki ijodini rivojlantirgan va mukkammal xolatga keltirgan desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Folklor atamasining o‘zi nima ushbu atama qanday ma‘noni anglatadi degan savol tug‘iladi. Bu savolga javob shunday.

Folklor atamasini birinchi bor 1803-1885 yillarda yashab o‘tgan ingliz olimi Vilyam Toms o‘zining “The fojklore” maqolasida izoh berib o‘tgan. Ya’ni “Fojk”-bu xalq, jore-bilim, donishmandlik ma‘nosini anglatadi. Demak, “Folkjore” - Xalq donoligi, xalq donishmandligidir. O‘zbek folklorshunoslari va olimlari yillar davomida

xalq og‘zaki ijodiga oid bir necha yuzlab asarlarni bizga yozib qoldirganlar. Bulardan G‘ozi olim Yunusov, Xodi Zarif, Abdulla Alaviy, Yunus Rajabiyilar qadimgi xalq og‘zaki ijodi namunalari, folklor asarlar, qo‘shiq laparlarni, allalarning namunalari to‘plab kitoblar, risolalar, qo‘llanmalar shaklida nashr ettirganlar.

O‘zbek folklor asarlari, xalq og‘zaki ijodi namunalari, jamlab, milliy urf odatlar va udumlarni o‘ziga xos uslublarini o‘zining ko‘plab asarlari, risolalari, qo‘llanma va maqolalarida keng yoritgan folklorshunos olim Muzayyana Alaviya juda ko‘plab ijodiy ishlarni amalga oshirgan. U barcha hududlarga borib o‘sha joyning og‘zaki ijodi namunalari, qo‘shiq, kuy, laparlari, marosim qo‘shiqlari, o‘lan, yor-yorlari, afsona, rivoyat, ertaklari, joylardagi baxshilar, doston ijrochilaridan xalq dostonlari va termalarini va albatta onalarimiz ijrosidagi allalarni yozib olgan. Olimaning “O‘zbek xalq qo‘shiqlari” (1955), “Yangi qo‘shiqlar” (1959), “O‘zbek folkloridan namunalar” (1955),” Oq olma qizil olma” (1979),” Xalq qo‘shiqlari” (1983) va yana ko‘plab asarlari fikrimizning yaqqol dalilidir. Ushbu olim va olimalarimiz alla turkumidagi ijro etilgan asarlar xaqida juda ko‘p asarlar yozib qoldirganlar.

Endi sizlarga alla va uning yaratilish tarixi haqida qisman tushuncha berishga o‘tamiz. Qadim qadimdan o‘zbek xotin-qizlari, ayollari, onalari o‘ta sabr qanoatli, bardoshli, matonatli, kezi kelganda mard va jasur bo‘lganlar. Turmushning achchiqchuchugi, jabr zulumlarini mardonavor engib o‘tganlar Ular bor dard-u xasratlarini ochiqdan ochiq oshkor etmasdan, allalar, yallalar qo‘shiq, lapar, o‘lanlarda kuylaganlar.

Alla bizlarni quloqlarimiz birinchi bo‘lib tinglagan, yaxshilik, ezgulik sari etaklagan, oila, ona yurt, vatanga cheksiz mehr-muhabbat uyg‘otgan birinchi qo‘shiq, onalar qo‘shig‘i, onajonlar qo‘shig‘i.

Alla so‘zining tag zamirida ma‘nosida Ollox nomi zikr etilgan. Endi e‘tiboringizga mana bu allani xavola etamiz. Yana bir izoh, shu allani men rahmatlik onam Xoliniso Xusanboy qizidan tinglab, eshitib, yodlab olganman. Allaning so‘zlariga e‘tibor bering. Men ketar bo‘ldim netay-o alla, Arzim bayon aylab ketay-o alla. Mehribonim qoldi deb-o alla, Yo‘llarda zor yig‘lab ketay-o alla. Mehribonim ketdiyu alla, Mehri ko‘zimdan ketmadi-yo alla. Mehribonimdan keyin-o alla, Hech kim meni yod etmadi-yo alla. Bog‘bonim beraxm-o alla. G‘uncha gulimni uzdilaro alla. Bemaxal kelgan o‘lim-o alla, Xonumonimnm buzdilar-o alla. Men ketarman bosh olib-o alla.

Ikki qo‘limga tosh olib-o alla. Mehribonim ketdi deb-o alla, ikki ko‘zimga yosh olib-o alla. Alla. Allalar ham har bir joylarda o‘ziga xos uslubda ijro etiladi. Allalar har bir onaning o‘z so‘zi, o‘z ohangida alohida aks etadi. Qadim-qadim zamonlardagi xasrat dard, alam, alamli allalar o‘rnini hozirgi kunda tinch farovon obod, go‘zal

turmushimizni aks ettiruvchi soʻzlar bilan kuylanishi yoki ijro etilishini alohida taʼkidlab oʻtishimiz mumkin.

Alla, birinchi qoʻshiq, barcha onalar qoʻshigʻi, bu qoʻshiqda farzandiga yaxshilik, ezgulik, mehr-muxabbat, yurtiga ona vatanga sadoqat tuygʻularini singdiradi. Allalar dastlab har bir ayolning oʻz ohangi oʻz dardi, oʻz yurak nolasi bilan musiqa joʻrligisiz aytilgan boʻlsa keyinchalik, bir necha vaqtlardan soʻng, bizlarni davrimizga kelib ayrim ustoz sanʼatkorlar, bastakorlar tomonidan allalarga xos musiqalar bastalay boshladilar. Shoirlarimiz alla yoʻnalishiga tushadigan vaznda sheʼrlar yozdilar. Shunday qilib xalq ogʻzaki ijodining yangi yoʻnalishi musiqa joʻrligida kuylanadigan zamonaviy allalar yaratildi.

Oʻzbek ustoz sanʼatkorlari (asosan ayollar va qizlar) koʻplab musiqa joʻrligidagi “alla” turkumidagi qoʻshiqlarni ijro etib, ushbu qoʻshiqlarni Oʻzbekiston teleradio kompaniyasi oltin fondiga milliy musiqa merosimizning boyligi sifatida yozib qoldirdilar. Ustoz sanʼatkorlar: Shirin Azizova, Xabiba Oxunova, Mexri Abdullayeva, Raxima Mazoxidova, Farogʻat Raxmatovalar shular jumlasidandir.

Hozirgi kunda biz bilan yelkama-yelka turib oʻz sanʼat maktablarini, ijro uslublarini, bilimlarini yosh avlodlarga oʻrgatib kelayotgan Oʻzbekiston davlat sanʼat va madaniyat instituti oʻqituvchilari, Oʻzbekiston xalq artisti ustoz sanʼatkor Shafolat Rahmatullayeva, Oʻzbekistonda xizmat koʻrsatgan artist Xursanoy Umarova, Oʻzbekiston xalq artisti Yorqinoy Xotamovalar ham “alla” turkumidagi bir necha qoʻshiqlarni maromiga etkazib ijro etadilar.

Hozir musiqa joʻrligida kuylangan alla namunalaridan misollar keltiramiz:

Alla

Alla aytay jonim bolam,
Quloq solgil, alla.
Shirin allam tinglab asta,
Uxlab qolgin alla,
Yuzlaringa tomgan suvga,
Hayron boʻlma, alla-yo,
Baxtinga sen katta bulgin,
Xazon boʻlma alla.
Alla Yulduzim desamda oz,
Kunduzim desamda oz.
Dunyoda nimaiki bor,
Boʻlsa undan oʻzing soz
Orom ol qoʻzim, alla - yo,
Uxla yulduzim, alla.
Asalmisan, qandmisan,

G'azal muhabbatmisan.
Buncha shirinsan o'zing,
Jonimga payvanmisan.
Orom ol qo'zim, alla-yo,
Uxla yulduzim alla.
Alla Jon bolam do'ndiqqinam,
Alla-yo alla, Shirin qo'zichog'im
Alla - yo alla.
Uxla qo'zim qunduzim -o alla,
Yum - Yum ko'zing yulduzim - o alla,
Kecha to'yib uxlasang- o alla,
Quvnoq o'tar kunduzing - o alla.

Folklor asarlar vaqt o'tishi bilan davrga qarab o'zgarishi mumkin shu jumladan allalar ham. Qadim zamonlarda onalarimiz o'z dardlari, g'am anduxlarini qo'shiq, lapar, allalarda kuylagan bo'lsalar, endilikda, tinzh farovon xayot, baxtu iqbolni, jannatmakon yurtimizni madx etuvchi qo'shiq kuylar, lapar va yallalar, albatta baxtiyor ona va baxt iqboli bor mustaqil O'zbekistonimizni madh etuvchi allalar yaratilmoqda.

Allalardan namunalar.

Jonimning jindalagi,
Jonimning jindalagi, alla,
Qovunning handalagi, alla,
Gullar ichida g'unchasi, alla,
Nonlar ichida kulchasi, alla.
O'rgilayin o'zingdan, alla,
Shamchiroqdek ko'zingdan, alla,
Obi-novvot tomchilar, alla,
Buvi degan so'zingdan, alla,
Oyni olib beraymi, alla,
Kunni olib beraymi, alla,
Belanchaging boshiga, alla,
Sara gullar teraymi, alla,
Bolaginam bolasi
Bolaginam bolasi, alla,
Qantak o'rik donasi, alla.
Qantdan ham shirin ekan, alla,
Bolaginamning bolasi, alla.
Bog'da uzumning g'o'rasi, alla,

Tog‘da kiyikning bolasi, alla.
Do‘ppisida ukkipari, alla,
Bu kimning nevarasi, alla.
Asaka yo‘li to‘p chinor, alla.
Bolalar otini qamchilar, alla.
«Buvi» degan tilingdan, alla,
Obinovvot tomchilar, alla.

O‘rgilayin o‘zingdan

O‘rgilayin o‘zingdan, alla,
Shamchiroqdek ko‘zingdan, alla.
Obinovvot tomchilar, alla,
«Buvi» degan so‘zingdan, alla.
Aylanayin qarog‘im, alla,
Uyda yongan chirog‘im, alla.
Do‘stim ko‘rsa, yarashib, alla,
Dushmanimga yarog‘im, alla.
Qalam-qalam qoshingdan, alla,
Qalandarlar aylansin, alla.
Xumor-xumor ko‘zingdan, alla,
Xumoralar aylansin, alla.
Oyni olib beraymi.
Oyni olib beraymi, alla,
Kunni olib beraymi, alla,
Belanchaging boshiga, alla,
Sara gullar teraymi, alla?
Alla, deyin, o‘payin, alla,
Qiyosingni topayin, alla.
Tiling chiqib «non» desang, alla,
Kunda kulcha yopayin, alla.
Oltin beshik oldiray, alla,
Kumush beshik oldiray, alla.
Bolaginam tagiga, alla,
Baxmal to‘shak soldiray, alla
Onamanu onaman, alla,
Bolam uchun yonaman, alla.
Bolam tinchlikda o‘ssa, alla.
Orzularga qonaman, alla.

(Yuqoridagi allalar “O‘zbek allasi” nomli risoladagi Nigoraxon Sodiqova to‘plagan allalardan namunalar olindi.)

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Folklor - etnografik jamoalari uslubiyoti. S.Yo‘ldosheva “Navro‘z” nashryoti Toshkent: 2014.
2. O‘zbek marosim folklori. B.Sarimsoqov. Toshkent: Fan 1986.
3. M.Jo‘rayev, L.Xudoyqulova. Marosimnoma. Toshkent. 2008 yil.
4. Folklor jamoa ijrochiligi. G‘.Yunusov. Toshkent 2021 yil.
5. Saxna nutqi. U.Boltaboyeva. Toshkent. 2020 yil.
6. O‘zbek xalq musiqasi. Yu.Rajabiy, Toshkent 1956 yil.
7. “O‘zbek allasi” nomli risoladagi Nigoraxon Sodiqova to‘plagan allalardan namunalar olindi.
8. Yunusov, G., Ahmedov, R., Jurayev, I., & Yuldasheva, S. (2021). A Look At The Folklore of Fergana Valley or History of A Song in The Series of Tanovar. *Annals of the Romanian Society for Cell Biology*, 25(6), 2225-2232.
9. Talaboyev, A. (2021). Skill Improving Ways in Traditional Song Performing. *European Journal of Life Safety and Stability* (2660-9630), 11, 12-17.
10. Talaboyev, A. N. (2019). O‘zbek milliy an’anaviy ijrochilik san’atida mahalliy uslublar. *Perekryostok kultury*, 1(4).
11. Talaboyev, A., Yunusov, G., & Ahmedov, R. (2020). Local methods of traditional singing. *Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems*, 12(2), 2916-2920.
12. Talaboyev, A. (2019). Maqom san’atida so‘zning o‘rni.
13. Talaboyev, A., Yunusov, G., & Ahmedov, R. (2020). Local methods of traditional singing. *Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems*, 12(2), 2916-2920.
14. Ahmedov, R. (2020). Milliy musiqiy ijrochilik san’atiga bir nazar. Shermatova, X. (2021). 253-258. 22. Shermatova, X. (2020). Musiqa nazariyasining o‘ziga xos xususiyatlari.